

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti**

**PEDAGOGIKA FAKULTETI**

**«Pedagogika» kafedrası**

5140800-Pedagogika va psixologiya yo'nalishi 3- kurs talabasi

Isoqulova Charosning

«Pedagogik konfliktologiya» fanidan

# **KURS ISHI**

**MAVZU: Bilim o'zlashtirish jarayonida yuzaga keladigan  
konfliktlar**

Ilmiy rahbar: Sh.O'roqov

Samarqand - 2014

## **Reja**

### **KIRISH**

### **ASOSIY QISM:**

- 1. Ta'lim uslublari haqida tushuncha**
- 2. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-metodik tayyorgarligini shakllantirish xususiyatlari**
- 3. Ўқувчиларнинг билим ўзлаштиришидаги konfliktlarni bartaraf etishda o'qituvchining dars berish va tarbiyachilik mahorati**

### **XULOSA**

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** Malakali mutaxassislar, shu jumladan, pedagoglarni tayyorlash tizimini takomillashtirish jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan taraqqiy etishiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Chunki, o'qituvchi, eng avvalo, barkamol avlodni voyaga yetkazishdek muhim ijtimoiy buyurtmani bajaruvchi asosiy ijrochi hisoblanadi. Prezidentimiz Islom Karimov «Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch» nomli asarida «Yurtimizda yangi avlod, yangi tafakkur sohiblarini tarbiyalashdek ma'suliyatli vazifani ado etishda birinchi galda o'qituvchi - murabbiylarning mehnatiga suyanamiz va tayanamiz» deya ta'kidlaydi. Bu ishonch pedagoglarning kasbiy tayyorgarligi va pedagogik mahoratini shakllantirishga innovasion asosda yondoshish zaruratini shakllantiradi.

Ma'lumki, pedagogik faoliyat - ta'lim maqsadlarini amalga oshirishga qaratilgan holda maxsus tashkil etiluvchi va o'qituvchi hamda ta'lim oluvchilarning o'zaro munosabatlari asoslanuvchi ijtimoiy faoliyat turidir. Pedagogik faoliyat samaradorligining shartlaridan biri "kasbiy tayyorgarlik" tushunchasini quyidagicha ta'riflash mumkin bo'ladi:

Kasbiy tayyorgarlik - maxsus nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar, metodik bilimlar, shuningdek, ma'naviy-axloqiy sifatlarni o'zlashtirish asosida shaxsning kasbiy faoliyatni olib borishga nisbatan fiziologik, psixologik va jismoniy tayyorgarlik darajasi.

Kasbiy tayyorgarlikni shakllantirish - DTS talablari asosida shaxsda maxsus nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar, shuningdek, ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish, bo'lajak mutaxassisni kasbiy faoliyatni

muvaffaqiyatli olib borishga nisbatan fiziologik, psixologik va jismoniy tayyorlash jarayonidir.

Kasbiy bilimlarning mukammal bo'lishi uchun quyidagilar talab etiladi:

1. Fan metodologiyasi – jamiyatning ta'lim-tarbiya sohasidagi talab va vazifalarining falsafiy asoslarini bilishi;
2. Nazariy bilimlar – pedagogika-psixologiya fani va o'z fanining qonun va qonuniyatlarini, qoida va tamoyillarini bilishi;
3. Metodik bilimlar – o'quv ta'lim jarayoni tuzilishining modelini amaliy va nazariy jihatdan tuza olishi (ta'lim jarayonini modellashtira olishi);
4. Ta'limning texnologik tomoni – konkret sharoitda ta'lim va tarbiya sohasidagi amaliy vazifalarni samarali hal eta olishi.

Bugungi kunda pedagogik faoliyatda kasbiy bilimlarning yetarli darajada mavjud emasligi natijasida o'quv jarayonini tashkil etishda o'qitish metodlarini qo'llashda turli darajada e'tirozlarning va konfliktlarning yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda.

**Tadqiqotning maqsadi:** Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy bilimlari va o'qitish metodlaridan foydalanish, shuningdek o'qituvchilarning ta'lim berish va tarbiyalash mahoratlarini shakllantirish yo'llarini aniqlash.

**Tadqiqot obyekti:** Ўқувчиларнинг билим ўзлаштиришда юзага келадиган низоли вазиятлар жараёни

**Tadqiqot predmeti:** O'qitish metodlaridan foydalanishda kasbiy bilimlar va pedagogik mahorat muhim vosita sifatida

**Tadqiqot vazifalari:**

1. Mavzuga oid mavjud ilmiy va o'quv adabiyotlar hamda tadqiqot ishlarini tahliliy o'rganish
2. O'qitish metodlarining tavsifi va qo'llanish xususiyatlarini aniqlash;
3. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-metodik tayyorgarligini shakllantirish xususiyatlari ishlab chiqish
4. Ўқувчиларнинг билим ўзлаштиришидаги konfliktlarni bartaraf etishda o'qituvchining dars berish va tarbiyachilik mahoratining ahamiyatini yoritish.

5. O'qitish metodikasibo'yicha yuzaga keladigan konfliktlarni bartaraf etishga qaratilgan xulosa va tavsiyalarni shakllantirish.

**Tadqiqotning metodologik asosi:** O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, Prezident I.A.Karimovning barkamol avlod tarbiyasi bo'yicha g'oyalari, ma'ruzalari, Sharq mutafakkirlarining ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish bo'yicha qarashlari, shuningdek Respublikamiz pedagog-psixolog olimlarining o'qituvching kasbiy metodik tayyorgarligi va pedagogik mahorati muammolariga bag'ishlangan tadqiqotlari tadqiqotimiz uchun asos qilib olindi.

## **ASOSIY QISM:**

### **1.Ta'lim uslublari haqida tushuncha**

Ta'lim jarayonida o'quvchilar muayyan bilimlar, ko'nikma va malakalarni egallaydilar, o'quv materialining bitta mazmunini o'zi ta'limning turli vositalari yordamida, turli usullari bilan o'zlashtirilishi mumkin. Shu sababli o'qituvchi oldida muvaffaqiyatliroq va samaraliroq o'qitish va o'qishga yordam beradigan yullarni tanlash mas'uliyati turadi. Ta'limni bilim berish va rivojlantirish vazifalarining amalga oshirilishi metodni tanlashga bog'liq. Materialni bilim olishning nazariy yoki amaliy faoliyatidagi muayyan formalaridagina suxbat yoki amaliy ishlarning bajarish formasida, yoxud bevosita kuzatishlar va shu singari formada o'zlashtirish mumkin. Material mazmunini o'zlashtirishning mana shu formasi ta'lim uslubi hisoblanadi.

Ta'lim metodining ikki jihati: Birinchi jihati – bevosita kuzatiladigan tashqi tomoni. Ikkinchi jihati – kuzatish va taxlil qilish uchun qiyin bo'lgan ichki tomoni bo'ladi.

Ta'lim uslublari o'qitishning umumiy va aniq maqsadlariga bog'liq.

O'quv vazifasi qanchalik konkret bo'lsa, o'qitish metodining belgilari shuncha ko'p bo'ladi. Shu sababli o'qituvchi metodlarning umumiy belgilarinigina emas, balki aniq mavzu o'rganish vaqtida vujudga keladigan qo'shimcha belgilarni ham bilishi lozim. Ta'lim metodining umumiy va aniq belgilari o'rtasidagi o'zaro aloqa ta'limining turli sharoitlarida uning maxsuldorligini ta'minlaydi. Ta'lim metodlari o'qitishning umumiy va aniq maqsadlariga bog'liq. Ta'lim metodlari maktab ta'limining mazmuniga bog'liq.

Ta'lim metodlarini o'zaro aloqasi garmonik kamolot barcha tomonlarining o'zaro aloqasi va birligini ta'minlaydi. Ta'lim uslublari ko'p jihatdan o'quvchilarning psixologik va yosh xususiyatlariga bog'liq.

Masalan, boshlang'ich sinflarda, ayniqsa 1-sinfda, ta'lim metodlarini tanlash o'quvchining xissiy tajribasi asosida tafakkurning abstrakt formalarini rivojlantirish imkoniyatlari bilan belgilanadi.

Ta'lim metodlari o'quvchilar organizmining anatomik-fiziologik xususiyatlariga bog'liq bo'lib, ularning shu kobiliyatlarini, charchashni organizmning nerv tomir, suyak mushak, jinsiy sistemalari xususiyatini hisobga oladi.

Ta'lim metodlarini tanlash maktabning moddiy texnika taminotiga ham bog'liq. O'qituvchi ta'lim metodini tanlar ekan, maktabda mavjud bo'lgan texnika vositalari va ulardan foydalanish imkoniyatlarini hisobga oladi.

Ta'lim usullari-o'qituvchi yoki o'quvchilarning alohida operatsiyalari, aqliy yoki amaliy harakatlari bo'lib muayyan metod takdim etadigan materialni o'zlashtirish formasini bildiradi.

Masalan: - O'qituvchi yodlashni muayyan mnemonik usullarini, ko'nikma va malakalarini shakllantirishda o'z ahamiyatini yukotadi.

O'qitish usullarini quyidagicha taksimlash mumkin:

-Tafakkur, diqqat, xotiraga savvurning ayrim operatsiyalarini shakllantirish va faollashtirish usullari.

-O'quvchilarning tafakkur faoliyatida problematik, izlanishni talab qiladigan vazifalarni vujudga keltiradigan usullar.

-O'quvchilarni o'quv materialini o'rganish bilan bog'liq kechinmalari, xis-tuygularini faollashtiruvchi usullari.

-O'quvchilarni nazorat qilish, o'z-o'zini nazorat qilish, o'zini-o'zi o'rgatish usullari.

-O'quv jarayonida o'quvchilarning kollektiv va shaxsiy o'zaro munosabatlarini boshqarish usullari.

O'qitish muayyan tashkiliy formalari amalga oshiradigan, biz ularni dars utish, ekskursiya, amaliy laboratoriya mashg'ulotlari, seminar, leksiya, ishlab chiqarish va pedagogik praktika, uy ishi va boshqalar tarzida tushunamiz.

Gruppa usulida va individual tarzda o'qitish tarixan tarkib topgan va rivojlanmoqda. Individual tarzda o'qitish deganda o'qituvchi yoki murabbiy har bir o'quvchini uning o'quv materialini o'zlashtirishda shaxsiy sur'atiga va qobiliyatiga

qarab alohida o'qitish tushuniladi. Individual tarzda o'qitish o'quvchi shaxsining xususiyatini va uning bilish xususiyatlarini chuqurrok o'rganishga yordam beradi.

Gruppa usulida o'qitish o'qituvchining o'quvchilar gruppasi bilan ish olib borishini takazo qiladi. Avvaldan eng avvalo vaqt, ya'ni o'qitish ishining unumdorligi masalasidadir. Bir o'qituvchi ayni bir vaqtning o'zida bir emas balki o'quvchilarning butun bir gruppasini o'qitadi.

Maktabda o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishni darstan tashqari boshqa formalari ham mavjud: amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari, mustaqil uy ishi, ekskursiyalar, o'quv ustaxonalar va sexlarda ishlash kabilar.

Mashg'ulotlarni bunday turlari sinf dars sistemasini tuldiradi va takomillashtiradi. Sungi yillarda olimlar tomonidan nashr qilingan pedagogik adabiyotlarda didaktik prinsiplar turlicha gruppalashtirilmokda.

## **2. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-metodik tayyorgarligini shakllantirish xususiyatlari**

Kasbiy tayyorgarlik murakkab va ko'p qirrali jarayon hisoblanib, uning negizida muayyan kasb bo'yicha muvaffaqiyatli ishlashni ta'minlovchi imkoniyatlar, shaxsning yo'nalganligi, kasbiy bilim, ko'nikma, malaka va kasbiy sifatlar, mehnat tajribasi yaxlit majmua ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Shaxsning pedagogik faoliyatga yo'nalganligi uning dunyoqarashi, pedagogik kasbga qiziqishi, u bilan shug'ullanishga bo'lgan layoqati belgilanadi.

N.V.Kuzmina shaxsning pedagogik faoliyatga yo'nalganligi uch xil holatda bo'lishini ta'kidlaydi:

1) xaqiqiy pedagogik; 2) rasman pedagogik; 3) yolg'on pedagogik yo'nalganlik<sup>[1]</sup>.

Pedagogik faoliyatni tashkil etishda faqatgina birinchi holatdagi pedagogik tayyorgarlik yuqori natijalarni qo'lga kiritilishiga yordam beradi. Haqiqiy pedagogik yo'nalganlikning asosiy motivi pedagogik faoliyatga qiziqish hisoblanadi.

Tadqiqotchilar (N.V.Kuzmina, G.A.Myurrey, A.Adiner, N.A.Aminov va boshqalar) shaxsning pedagogik faoliyatga intilish motivlarini o'rganar ekanlar, ularni quyidagi uch turga ajratadilar:

- majburiylikka asoslanuvchi sabablar mavjudligini ifodalovchi motivlar;
  - muayyan fanlarni o'rganishga bo'lgan qiziqishga asoslanuvchi motivlar;
  - bolalar bilan muloqotga intilish ehtiyojining mavjudligini aks ettiruvchi motivlar.
- Ko'rib chiqilgan ushbu jihatlar tahlil etiladigan bo'lsa, kasb tanlash motivlarining asoslanganligi pedagogik faoliyat cho'qqi-siga erishishining muhim sube'ktiv omillaridan biri bo'libgina qolmay, ayni vaqtda kasbiy tayyorgarlikning umumiy holatiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonida ularning kelgusida kasbiy faoliyatni yo'lga qo'yish uchun zarur bo'lgan shaxsiy, ma'naviy-axloqiy, psixologik hamda jismoniy sifatlarga egaliklari va ularning rivojlanganlik ko'rsatkichlari muhim ahamiyatga ega. Zero, har qanday kasbiy faoliyat insondan muayyan xislatlarga egalikni talab etadi.

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda, xususan, M.Inomova tadqiqot-larida zamonaviy o'qituvchining ma'naviy-ahloqiy sifatlarini Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi mazmunidan kelib chiqib quyidagicha tasvirlaydi:

- 1) o'qituvchi pedagogik faoliyatga qobiliyati bor, ijodkor ishbiarmon, odamijon bo'lmog'i;
- 2) milliy va umuminsoniy qadriyatlarni anglaydigan va mukammal egallagan, diniy va dunyoviy bilimlardan ogoh, ma'naviy-axloqiy barkamol inson sifatida obro'-e'tiborga ega bo'lmog'i;
- 3) pedagogik kasbga doir bilimlarni, ya'ni psixologik, pedagogik malaka va mahoratni, ilmiy-nazariy va amaliy bilimlarni puxta egallagan bo'lishi;
- 4) bolalarni sevishi, ularning ruhiyatini yaxshi bilishi, shuningdek, yosh va individual xususiyatini hisobga olgan holda ular bilan muomalaga kirisha olishi;
- 5) o'qituvchi o'tkir suxandon, mantiqiy fikrlovchi, o'quvchilarga berilishi lozim bo'lgan ma'lumotni izchil va ketma-ketlik tamoyili asosida yetkazishi kabi bir qator talablarni keltiradi<sup>[2]</sup>.

M.G.Davletshin esa o'z izlanishlarida o'qituvchi qiyofasida aks etishi zarur bo'lgan shaxsiy va kasbiy sifatlarni yaxlit majmua tarzida quyidagicha ifodalaydi:

1. O'qituvchining shaxsiy xislatlari (bolalarni yaxshi ko'rish, ularni sevish; amaliy-psixologik aql-farosatlilik; mehnatsevarlik; jamoat ishlarida faollik; mehribonlik; kamtarlik; odamiylik, dilkashlik; uddaburonlik, mustahkam xarakterga ega bo'lish; o'z bilimini oshirishga intilish).
2. Kasbiga xos bilimlarga egalik (ta'lim va tarbiya jarayoni mohiyati bilan uning maqsad va vazifalarini tushunishi; psixologiya asoslarini, yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya asoslarini bilishi; etnopsixologik bilimlarni egallashi; hozirgi zamon pedagogikasi asoslarini va uning metodologiyasini bilishi; maktab

yoshidagi bolalarning psixologik-pedagogik xususiyatlarini tushunishi; o'z fanini o'qitish metodikasini bilishi; o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir etishning samaradorligini bilishi; ota-onalar va jamoatchilik bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning mazmunini bilishi).

3. O'z kasbiga xos xislatlarga egalik (milliy qayta qurish mafkurasi bilan mustaqil davlat mafkurasini tushunishi; zamonaviy maktabda olib boriladigan o'quv-tarbiya jarayonida umuminsoniy boyliklar, milliy an'analar va urf-odatlarining ahamiyatini tushunishi; o'qituvchining kuzatuvchanligi; o'z diqqat-e'tiborini taqsimlay olishi; pedagogik fantaziya (xayol)ning rivojlanishi; o'ziga tanqidiy munosabatda bo'lishi; o'zini qo'lga ola bilishi, o'zini tuta olishi; pedagogik takt; nutqning emosional ifodalanishi).

4. Shaxsiy-pedagogik uddaburonligi (dars mashg'ulotlari uchun zarur materiallarni tanlay bilishi; o'quvchilarning bilish faoliyatini boshqara olishi; ta'lim va tarbiya jarayonida o'quvchilar ongining taraqqiy etib borishini istiqbolli ravishda rejalashtira olishi; pedagogik vazifalarni shakllantirish va tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishni bilishi; bolalar jamoasiga rahbarlik qilishda o'z faoliyatini rejalashtirishni bilishi; o'quv maqsadlarini rejalashtira olishi; o'zini ta'lim-tarbiya ishlariga tayyorlanish tizimini rejalashtira olishi).

5. Tashkilotchilik malakalariga egalik (bolalar jamoasini uyushtira bilishi; turli sharoitlarda bolalar jamoasini boshqara olishi; bolalarni biror narsaga qiziqtirib, ularni faollashtira olishi; amaliy masalalarni hal etishda o'zining bilim va tajribalarini ustalik bilan tez qo'llay olishi).

6. Kommunikativlik malakalariga egaligi (bolalarni o'ziga jalb etishni bilishi; bolalar va ota-onalar bilan maqsadga muvofiq pedagogik munosabatni tartibga solishni bilishi; bolalarning jamoalararo va jamoa ichidagi o'zaro munosabatlarini tartibga solishni bilishi; bolalar va ota-onalar bilan tashqaridan aloqa bog'lashni bilishi).

7. Gnostik malakalarga egaligi (bolalarning asab-psixik taraqqiyoti darajasini aniqlay bilishi; o'zining tajribasi va pedagogik faoliyati natijalarini tanqidiy tahlil qila olishi; boshqa o'qituvchilarning tajribalarini o'rganib, undan (nazariy va

amaliy tomondan) to'g'ri xulosa chiqara olishi; psixologik va pedagogik adabiyotlardan foydalanishni bilishi; o'quvchilarni to'g'ri tushunib, ularning xulq-atvori sabablarini tushuntirishni bilishi).

8. Ijodiy xislatlarga egalik (pedagogik mahoratni takomillash-tirishga intilishi; o'quvchilarni tarbiyalash dasturini ishlab chiqish va uni amalga oshirish qobiliyati; o'zini o'quvchi o'rniga qo'yib, bo'lib o'tgan hodisalarga uning nazari bilan qaray olishi; avvalgi voqyea-hodisalar va tarbiyalanuvchi shaxsiga yangicha qaray olish qobiliyati; o'zining o'quvchiga pedagogik ta'sir natijalarini oldindan ko'ra bilishi<sup>[3]</sup>).

Pedagogika kolleji bitiruvchilari asosan uzluksiz ta'lim tizimi-ning muhim bo'g'inlaridan bo'lgan umumta'lim maktablarida faoliyat yuritishi e'tiborga olinsa, ularning kasbiy tayyorgarligi mazmuni mazkur ta'lim muassasalari tarbiyachi-pedagoglarga qo'yiladigan kasbiy-malakaviy talab-lar doirasida belgilanishi va tashkillashtirilishi talab etiladi. O'rta maktab o'qituvchisining pedagogik faoliyatini tavsiflashda ko'pchilik olimlar N.V. Kuzmina va Z.F. Yesarova tadqiqotlariga tayanadilar<sup>[4]</sup>. Ular tarbiyachi-pedagogning kasbiy tayyorgarligida quyidagi komponentlarni farqlaydilar:

1. Bilimdonlik (gnostik qobiliyatga egalik).
2. Konstruktivlik (loyihalay olish qobiliyatiga egalik).
3. Kommunikativlik.
4. Tashkilotchilik.

Bilimdonlik (yunoncha “gnosis” – “bilish”) pedagogning bilim sohasiga taalluqli bo'lib, uning o'z fanini chuqur bilishi, muloqotchanligi, tarbiyachi-pedagogning psixologik xususiyatlari, o'zini anglashga doir bilimlarini o'zida mujassam etadi.

Konstruktivlik (loyihalay olish qobiliyatiga egalik) – bu pedagogning shaxsiy faoliyati va tarbiya maqsadlarini hisobga olgan holdagi faolliklarini alohida loyihalashtirishni ko'zda tutadi.

Kommunikativlik – bu tarbiyachi-pedagogning alohida xususiyati bo'lib, unda o'quvchilar va hamkasblari bilan o'zaro hamkorlik muloqoti nazarda tutiladi.

Bunda pedagogik faoliyatning samaradorligi uning muloqotchan-ligiga bog'liq bo'ladi. Muloqot didaktik asosga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Shu bilan birga bu komponent tarbiyachining bolalar bilan muloqotda bo'lishiga, o'quvchilarga yondashish uchun to'g'ri yo'l topa bilishga, ular bilan pedagogik nuqtai nazardan maqsadga muvofiq o'zaro aloqa bog'lashga, pedagogik shaklning mavjudligiga qaratilgan qobiliyatidir.

Tashkilotchilik – tarbiyachi-pedagogning o'z shaxsiy faoliyati, shuning-dek, o'quvchilar faoliyatini metodik jihatdan to'g'ri tashkil eta olish malakalariga egaligi bo'lib, ta'lim jarayonida muvaffaqiyatga erishishning muhim shartlaridan biri sanaladi. O'qituvchining tashkilotchilik qobiliyatiga egaligi, birinchidan, o'quvchilar jamoasini uyushtira bilish, unda jamoani jipslashtira olish, ikkinchidan, o'zini shaxsiy ishini to'g'ri tashkil qila olishda namoyon bo'ladi.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, tarbiyachi-pedagog kasbiy qiyofasida aks etishi lozim bo'lgan mazkur sifatlar ularning nafaqat o'quvchilar bilan o'zaro aloqaga kirishishlarida aks etib qolmay, shu bilan birga atrofdagilar bilan munosabatlarida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

N.V. Kuzmina va Z.F. Yesarovalarning tarbiyachi-pedagogning kasbiy tayyorgarligi borasidagi yondoshuvlari yetarlicha ilmiy-nazariy asoslangan bo'lsada, tarbiyachi-pedagogning kasbiy tayyorgarligi negizida aks etishi nihoyatda zarur bo'lgan ijodkorlik ko'nikmalari mualliflarning nazaridan chetda qolgan. Zero, kasbiy faoliyatni tashkil etishga ijodiy yondashmasdan turib, ta'lim va tarbiya ishlarini maqsadga muvofiq loyihalashtirish, amalga oshirish mumkin emas.

Ko'rinib turibdiki, mutaxassisning kasbiy tayyorgarligi va pedagogik mahorati unda nafaqat kasbiy bilimlarni kerakli darajasini, balki, psixologik tayyorgarlikni, o'zini - o'zi va o'quv-tarbiya jarayonini boshqarish, o'zini kerakli faoliyatga yo'naltirish, kasbiy, ma'naviy, jismoniy va shaxsiy imkoniyatlarini kerakli sharoitda qo'yilgan masalani hal etishga to'g'ri yo'naltira bilish kabi kasbiy ko'nikmalarni shakllantirishni nazarda tutadi. Chunki, aynan shu ko'nikmalar kasbiy tayyorgarlikning shakllanishidagi zaruriy fenomenlar sifatida baholanadi.

Bu esa, pedagog mutaxassislar kasbiy mahoratiga quyilayotgan talablar nafaqat kasbiy bilimlarning kerakli darajasini, balki, psixologik tayyorgarlikni, o'zini-o'zi va o'quv-tarbiya jarayonini boshqarish, o'zini kerakli faoliyatga yo'naltirish, kasbiy, ma'naviy, jismoniy va shaxsiy imkoniyatlarini kerakli sharoitda qo'yilgan masalani hal etishga yo'naltira bilish qobiliyatini shakllantirishni ham nazarda tutadi. Shu nuqtai-nazardan pedagogika oliygohlaridagi o'quv-tarbiya jarayonini modernizasiyalash pedagog mutaxassislar kasbiy tayyorgarligini shakllan-tirish jarayonining mazmuniga zaruriy o'zgartirishlarni kiritishni talab etadi va bu o'zgarishlar quyidagi aspektlar bo'yicha amalga oshirilishi maqsadga muvofiq sanaladi:

- **kasbiy sifatlarning shakllanishi** – pedagogik faoliyat muvaffa-qiyatining muhim omillaridan biri bo'lib, ular maqsadga intiluvchanlik, qat'iyatliqlik, tirishqoqlik, kuzatuvchanlik kabi sifatlardan tarkib topadi, unda ijtimoiy faollik, jamiyatda kechayotgan ijtimoiy jarayonlar hamda ta'lim muassasasi hayotida faol ishtirok etish, turli tashabbuslarni ilgari surish, ularni amalga oshirishda shaxsiy namuna ko'rsatish, umummilliy moddiy va ma'naviy qadriyatlarni yanada boyitishga bevosita hissa qo'yish layoqatiga egalik talab etiladi.

- **ijtimoiy va pedagogik-psixologik tayyorgarlik** – mutaxassisning ta'lim-tarbiya jarayonining qonun-qoidalarini o'zlashtirishi, pedagogik-psixologik bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi, ta'lim oluvchi shaxsining yosh va individual xususiyatlarini bilishi hamda ularning psixologik holatini boshqara olish, ta'lim jarayoni, uning mazmuni, tamoyillari, ta'limni tashkil etishning shakl, metod va vositalari haqidagi dastlabki nazariy ma'lumotlarga egalik darajasidir.

- **maxsus - metodik tayyorgarlik** – mutaxassisning ta'lim mazmuni, o'quv jarayoni va uning mazmunini yorituvchi hujjatlar, ta'lim shakllari, ilg'or metodlar, shuningdek, didaktik va texnik vositalardan maqsadga muvofiq, o'rinli foydalana olish borasidagi nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarga ega bo'lish, o'quv-tarbiyaviy jarayonini tashkil qilish va boshqarish malakalariga egalik, ta'lim jarayonining mohiyatini to'g'ri tushunish, o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini tashkil qilish hamda boshqarish, jamoada sog'lom psixologik muhit va samimiy,

o'zaro yordam va qo'llab-quvvatlashga asoslangan shaxslararo munosabatlarni qaror toptira olish qobiliyatini namoyon bo'lishi bilan tavsiflanadi.

- **innovation tayyorgarlik** – ta'lim jarayoni ishtirokchilarining o'zaro hamkorliklariga tayangan holda o'qitishning innovation g'oyalari, shakl, metod va vositalaridan samarali foydalanish, o'quv va ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishga ijodiy yondashish, yangiliklar yaratishga, innovation kasbiy faoliyatga intilish qobiliyati bilan izohlanadi.

Yuqorida qayd etilganlardan ko'rinib turibdiki, pedagogika oliygohlarida mutaxassislar kasbiy tayyorgarligi, pedagogik mahoratini shakllantirish dolzarb ijtimoiy ahamiyatli muammo hisoblanadi.

### **3. Ўқувчиларнинг билим ўзлаштиришидаги konfliktlarni bartaraf etishda o'qituvchining dars berish va tarbiyachilik mahorati**

O'quvchilarning har xil predmet o'qituvchilarining metodik tayyorgarligiga bo'lgan e'tirozlari ko'pincha to'g'ri bo'lib chiqadi.

O'quvchilarning bu sohadagi e'tirozlari quyidagicha:

- tushuntira olmaslik;
- sistemasiz, palapartish bayon;
- tilning o'rinsiz murakkabligi;
- takrorlashning yo'qligi;
- materialni quruq bayon qilish;
- mavzuni hayot bilan bog'lay olmaslik;
- xo'ja ko'rsinga "mavzuni" bajarish;
- predmetga qiziqish uyg'ota olmaslik;
- xolis baholash olmaslik;
- arzimagan javobga yuqori baho qo'yish;
- barcha o'quvchilarga faqat "3" baho qo'yish va hokazo.

O'qituvchining metodikasidagi bunday nuqsonlar uning va o'quvchilarning ruhiy zo'riqishga uchrashiga sabab bo'ladi.

Uzluksiz ta'lim tizimini amalga oshirish jarayonida yosh avlod (o'quvchi, talaba)ni ko'ngildagidek o'qitish va tarbiyalash haqida gap borar ekan, bu g'oyat murakkab va ko'p qirrali vazifani faqat malakali pedagogik mahoratga ega bo'lgan o'qituvchi kadrlar bilan amalga oshirish mumkin. Shuning uchun o'qituvchilik kasbi katta san'at sanaladi. Bu san'atga u yoki bu pedagog osongina, o'z-o'zidan erisha olmaydi. Buning uchun o'qituvchilik kasbiga, ya'ni sog'lom avlodning chinakkam murabbiyi bo'lishga havasi, ishtiyoqi zo'r, zamon talablarini tez va chuqur tushunadigan, o'zining ilmiy, ijtimoiy-siyosiy saviyasini, pedagogik mahoratini izchillik bilan amalga oshira boruvchi, mustaqillik g'oyasi va mafkurasi bilan puxta qurollantirilgan, haqiqiy vatanparvar va mehnatsevar kishilargina erisha oladilar.

Istiqlol mafkurasi tom ma'nodagi milliy mafkuraga aylanishi uchun, avvalo, inson qalbi va ongiga ijobiy ta'sir etadigan tushuncha va tuyg'ular, go'zal va hayotiy g'oyalar tizimini o'zida mujassam etishi lozim. Buning uchun ta'lim va tarbiya tizimidagi har bir o'qituvchi bilim va mahorat bilan odamlarimizning, ayniqsa, yoshlarimizning irodasini baquvvat qilish, imyon-e'tiqodini mustahkamlashga xizmat qiladigan ma'naviy muhitni yaratish darkor. Yuksak ma'naviyat, siyosiy madaniyat, millatning g'oyaviy va mafkuraviy yetukligi – yurt tinchligini saqlashning muhim omilidir.

Pedagogik mahorat tug'ma talant yoki nasldan-naslga o'tadigan xususiyat emas, balki tinimsiz izlanish, ham ilmiy, ham amaliy shakldagi ijodiy mehnat mahsulidir. Bu ko'p qirrali pedagogik faoliyat zaminida ijodiy mehnat yotadi. Shuning uchun ham pedagogik mahorat hamma o'qituvchilar uchun standart, ya'ni bir qolip shaklida qolib ketadigan ish usuli emas, balki u har bir o'qituvchining o'z ustida ishlashi, ijodiy mehnati jarayonida tashkil topadi va rivojlanadi.

Darhaqiqat yurtimiz kelajagi bo'lgan yoshlarni har tomonlama kamolga yetgan barkamol inson qilib tarbiyalashda ularning ma'naviyat qirralari:

iymon, e'tiqod, mehr, vatanparvarlik, do'stlik, insonga cheksiz muhabbat, muruvvatlilik, qanoatlilik, sabr-toqatlilik, sahiylik, milliy g'urur kabi fazilatlarni shakllantirish juda muhimdir. Bu mislsiz tengi yo'q ishda pedagoglarning, tarbiyachilarning, ta'lim sohasida mas'ul xodimlarning xizmati benihoya kattadir.

Tarbiya-tarixiy va ijtimoiy xodisadir. Tarbiya avlod-ajdodlarimizdan bizga yetib kelgan buyuk meros bo'lib, u komil insonni voyaga yetkazishda muximdir. Tarbiya insonlarning faoliyati jarayonida ularning ongi va irodasini o'stirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, tarbiya ijtimoiy xodisa bo'lib, insoniyat taraqqiyotining turli bosqichlarida o'ziga xos mazmun va amalga oshirish shakliga egadir. Tarbiya haqida Shayx Sa'diy o'zining "Guliston" asarida shunday deb yozgan edi: "Kimda-kim yoshlikdan tarbiya olmasa, katta bo'lib baxtli bo'la olmaydi".

Adibning yuqoridagi so'zlariga amal qilgan xolda talabalarni ma'naviy boy, jismoniy jihatdan sog'lom qilib tarbiyalash maqsadida dastlab ularning tarbiyaviy

darajasini aniqlash maqsadga muvofiqdir. Buning uchun talabalar qalbini odob-axloq nurlari bilan yoritmoqchi bo'lgan tarbiyachi -pedagog chuqur bilim, keng maxorat va tarbiyachilik san'atini egallamog'i kerak. Talaba yoshlarni tarbiyalashda umuminsoniy qadriyatlar, islom ta'limoti, o'zbek milliy urf odatlariga amal qilish maqsadga muvofiqdir.

Tarbiyaviy jarayon ongli, mas'uliyatli faoliyat bo'lib, unda tarbiyachi tarbiyalanuvchilarni komil inson qilib yetishtirishda unga har tomonlama ta'sir ko'rsatadi tarbiyachi talabalar jamoasining tarbiyaviy darajasini o'rganib, unga ta'sir ko'rsatish maxoratiga ega bo'lishi, tarbiyaviy tadbirlarni talabalarning ruhiyatiga qanchalik ijobiy ta'sir etganini kuzatib, uni yanada rivojlantirishi, takomillashtirishi, tarbiyaviy ishlarni samaradorligini oshirishda o'z bilimini tarkibiy ravishda boyitib borish lozim.

Yurtimizda tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishning asosiy maqsadi milliy istiqloq talabiga javob beradigan yoshlarni tarbiyalashga qaratilgan ekan, ayni paytda bu niyat tarbiyachi-pedagoglarga katta ma'suliyatni yuklaydi. Pedagogik faoliyat yuritish davr talabiga javob bermog'i lozim. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning 5-moddasida xuddi shu xususda to'xtalgan: "Tegishli ma'lumoti, kasb tayyorgarligi bor va yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish xuquqiga ega.

Tarbiya uch narsaga extiyoj sezadi: iste'dodga, ilmga va mashqqa degan edi ulug' olim Arastu. Ana shu g'oyalarga asoslangan xolda tarbiyachilar quyidagilarga amal qilishlari lozimdir:

- tarbiyada ulg'ayotgan inson shaxsini oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir talaba, o'smir va yosh yigitning betakror va o'ziga xosligini hurmatlash, uning ijtimoiy xuquqiy va erkinligining e'tiborga tutilishi:

- milliylikning o'ziga xos an'ana vositalariga tayanish, jahon madaniyatining ilg'or tajribalariga asoslanish;

- talabalar faoliyatida tarbiyaviy jarayonning asosini tashkil qilish, qiziqarli, to'laqonli talabalar yosh jihatlariga mos hayot iqlimini yaratish, mehnat, hayriya, ijtimoiy foydali, ijtimoiy ko'ngilochar va shunga o'xshash tadbirlar tashkil etish

lozimki, natijada talabalar o'zlari xoxlagan ishga qo'l ursinlar, muvaffaqiyat hissini tushunib o'zlariga ishonchlari ortsin, axloqan barqaror bo'lsin.

Pedagog o'zining tarbiyachilik maxoratida milliy istiqlol g'oyasi, ozod va obod vatanga muxabbat va insonparvarlik, ma'naviy-axloqiy tarbiya, iqtisodiy tarbiya, ekologik tarbiya, nafosat tarbiyasi, jismoniy tarbiya, komil insonni voyaga yetkazish kabilarga e'tibor berishi lozim.

Demak, pedagog jamiyat hayotida yetakchi o'rin tutuvchi, murakkab shaxs strukturasiga ega bo'lgan insonning kasbiy qiyofasidir. Ijtimoiy turmushning barcha sohalarida erishilgan yutuqlarning zaminida uning mehnatining natijalari yotadi. Pedagoglarning pedagogik, psixologik tayyorgarligi va bilimlar integrasiyasi, muomala madaniyati, psixologik vaziyatlarni e'tiborga olish kabilar kuchli bo'lishi kerak. Yuksak saviyali, zo'r maxoratli tarbiyachilargina xalq orzusidagi barkamol insonni tarbiyalaydi. Ilm insonni yuksaklik sari olib boradi. A. Avloniy aytganlaridek: "Ilm insonlarning madori, hayoti, porloq kelajagi, rahbari, najotiga aylangan". Ilm inson uchun g'oyat oliy va muqaddas fazilatdir. Shuning uchun avvalam bor ilmli, tarbiyali bo'lmoq har bir yosh insonning burchi.

Shu maqsadda ko'nglida eng oliy orzularni jamlab, pedagog ter to'kib ishlaydi. Ularning mehnatini hurmat qilib, bergan bilimlarni egallamoq kerak. Behbudiy aytganlaridek: "Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdir". Ibn Sino ta'kidlaganidek "Kimga qanday pandu nasihat qilsang, unga avvalo o'zing amal qil".

Xalqimizda tarbiyachilik san'ati qadimdan juda yuksak darajada rivojlangan. Sharq mutafakkirlari, pedagog olimlari barkamol insonni yetishtirish uchun tarbiya naqadar zarurligini, uning mohiyatini va mazmunini asoslab berganlar.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishning milliy va nazariy asoslari mavjud bo'lib, pedagoglar o'zlarining tarbiyachilik faoliyati jarayonida;

- mustaqillik tufayli o'zbek xalqining milliy, diniy g'oyalarining keng ro'yobga chiqishi;

- ma'rifatparvarlik va jadidchilik harakatining tarixiy asoslari;— ona tilimiz, uning sofligini asrash;

- Turkiston xalklarining avlod-ajdodlari yaratgan xalq og'zaki ijodiyotining milliy tarbiya vositasi sifatida qo'llanishini yuzaga chiqarish va keng foydalanish;
- xalqimiz yaratgan milliy urf-odatlar va an'analarimizdan keng foydalanish;
- Qur'oni karim va xadisi sharifdagi inson kamolati xaqidagi g'oyalarni yoshlarga o'rgatish;
- ma'rifatparvar mutafakkirlar, milliy qahramonlar faoliyati, ularning asarlarini o'rganish, ilg'or tarbiyaviy ta'sir ko'rsatuvchi ta'limotlarga amal qilish va boshqalar.

Yukoridagi yo'nalishlardan bizga ma'lum bo'ladiki, buyuk ajdodlarimiz yuksak taraqqiy topgan davlat barpo etgani va bu mamlakatda «Kuch adolatda» - degan bosh shior davlat siyosatining, jamiyat hayotining asosi bo'lganini yaxshi bilamiz. Bu g'oya odamlarga kuch bergan, ularda insof diyonatga, ezgulikka ishonch uyg'otgan. Chunki jamiyatda adolat barqaror bo'lsa, millat hyech qachon adashmaydi. Ertami kechmi farovon turmushga erishadi. Adolat biz qurayotgan jamiyat mezonini bo'lmog'i darkor.

Albatta bunda pedagogning bilimi, mahorati beqiyosdir. Pedagogning bilim darajasi, sharqona fikr yurita bilishi, ish, bilan harakatining birligi talabalarining ijodiy fazilatlarini takomillashtirishda muhim o'rin tutadi. Tarbiyaning yetakchi maqsadi sifatida asrlar davomida shaxsning har tomonlama kamolatga erishuvi g'oyasi asos bo'lib qoladi. Shaxsning xar tomonlama kamolatga erishishi, bu uning ayrim qirralari yoki xislatlarining to'laqonliligini, jismoniy, axloqiy, siyosiy, estetik qarashlari yig'indisini o'z ichiga oladi. Yoshlarni falsafiy dunyoqarashiga tayyorlash, hayot mazmunini tushunib olishga ko'maklashish, o'z-o'zini idora va nazorat qila bilishni shakllantirish muhim ahamiyatga ega, chunki ular o'z shaxsiy turmushida maqsadli yondashuv reja va amal birligiga erishadilar. Talabalarni umuminsoniy va vatanimiz qadriyatlari, boy madaniyati bilan tanishtirish, ularda madaniy va diniy bilimlarni egallashga bo'lgan talablarni shakllantirish, malakalarni oshirish, estetik tushunchalarni kamol toptirish pedagog faoliyatida chuqur o'rin egallashi lozim. Har bir o'smirning, yigit va qizlarning bilimdonliklarini va ijodiy imkoniyatlarini aniqlab ularni rivojlantirish, talabalar

ijodkorligi, iqtidorini yuzaga chiqarish va yanada qo'llab-quvvatlash uchun shart-sharoit xozirlash, inson faoliyatini turli sohalarida joriy qilish maqsadga muvofiqdir.

Xalqimizning "Dunyoda ilmdan boshqa najot yo'q va bo'lmagay" - degan naqlini talabalar qalbiga singdirish mas'uliyati pedagogga topshirilgan. Tarbiya qanday bo'lmog'i kerak? Pedagogning pedagogik faoliyatining samaraga ega bo'lmog'i uchun ko'p jihatdan shaxs xususiyatlarining shakllanganligi, shaxs yo'nalishini aniqlanganligini va kasbiy maxoratning tarkib topganligi bilan xarakterlanadi.

Bugungi kunda ijtimoiy va iqtisodiy shart-sharoitning murakkab tus olishi yoki ta'lim tizimiga nisbatan yangi talablarning yuzaga kelishi pedagoglarning o'z faoliyatlarini tubdan o'zgartirishga xamda izchil, aql-zakovatni ishga solgan xolda ish tutishni taqozo etmoqda. Bu bir tomondan davr talabi ekanini, ikkinchi tomondan shart-sharoitga nisbatan tub burilish hosil qilish yoki shaxs faoliyatini yo'naltirishda yangicha munosabatda ish tutish talab etiladi. Chunki mamlakat ravnaqini ta'minlashda kasbiy ta'lim tizimida ijobiy o'zgarishlarning kiritilishi pedagogik hodimlarning psixologiyasida burilish yasashlik bilan belgilanadi. Pedagog talabaning ichki dunyosini tushunish boshqa odamlar bilan aloka o'rnatish, talabaga faol ta'sir o'tkazish, hamma bilan til topishib ketish, vazminlik, odamlarni ishontirish qobiliyati, bosiqlik va o'zini tuta bilish, talabchanlik, qat'iylik, g'ayratlilik, chidamlilik, rahbarlik va tashkilotchilik, o'zi va boshqalarning xulqini boshqarish, mustaqil va ijodiy fikrlashi muhimdir. Ko'p xollarda talabalar shaxsini rivojlantirishda aniq bir mezon o'lchovini belgilab olmaydilar. Shu sababli xam pedagog talabalarga kasbiy maxoratini tarkib topishida qiynaladilar. Har qanday xolatda -ham faoliyat yo'nalishini aks ettiruvchi mezon bo'lishi kerak.

Bu mezon pedagog faoliyatini doimo o'z-o'zini nazorat qilish imkoniyatini tug'diradi va uning samaradorligini ta'minlaydi. Pedagog shaxsiy xususiyatlaridan tashqari chuqur ilmiy saviyaga, so'zlash madaniyatiga, yuksak odob axloqli bo'lishi kerak. Talabalar bilan o'tkaziladigan suxbatlarni yukori saviyada tashkil

qilishda, pedagog quyidagi madaniyat qirralariga ega bo'lishi kerak. Ruxiyat madaniyati - talabalarning ma'naviy ehtiyojlariga tug'ri ta'sir ko'rsatish. Maxorat madaniyati - xar bir tadbirni zo'r quvonch qalbdan tashkil qilish. Siyosiy madaniyat - davr talabiga mos iqtisodiy, ijtimoiy bilimga ega bo'lish. Ma'naviy madaniyat - talabalarning ijodiy, ma'naviy, badiiy faoliyatini tashkil qilishdir.

Bundan tashqari, pedagog o'zining tashki ko'rinishiga xam e'tibor berishi kerak, toza-ozoda, ixcham kiyinishi kerak. Bundan tashqari oliy ma'lumotli, chuqur bilim egasi o'zining fanini puxta biladigan, yurt ravnaki uchun jonini fido qilishga tayyor, o'z shogirdlaridan bilimi, malakasini ayamaydigan, talabalarga aziz, do'st, sirdosh, kollejning fidokor xodimi bo'lmog'i lozimdir. Pedagog tarbiya jarayoni yanada samaraliroq o'tishi uchun turli xil ko'rgazmalardan, texnik vositalardan unumli foshdalanishi mumkin. Buyuk mutafakkirlarimizning noyob asarlari, ularning xikmatli so'zlari, turli qaxramonlik lavxalari tasvirlangan rasmlar, odob-axlok mavzusidagi filmlar texnik vositalar sifatida tarbiyaga" ta'sir qiladi. Insonni ma'naviy barkamol qilib tarbiyalashda o'zbek xalqining milliy va madaniy qadriyatlaridani foydalanish, manbaashunoslikka o'rgatish maqsadga muvofiqdir. Tarbiyaviy tadbirlarni rejalashtirishda talabaning ruxiyati, qiziqish jarayonidagi ijobiy va salbiy sifatlarining mavjudligi darajasiga e'tibor berish, tarbiyaviy tadbirlarning sifat va samaradorligini oshirishda yangicha ishlash metodi va shakllaridan foydalanish san'atiga ega bo'lish pedagogning pedagogik maxoratiga bog'liq. Pedagoglarning bu mashaqqatli mexnatlarini qadrlagan xolda talabalarning o'zlari xam yaqin yordamchi bo'lishlari kerak. Shu o'rinda Voiz Koshifiyning "Agar shogirdlikning binosi nimaning ustiga quriladi deb so'rasalar javob bergil: Iroda va sabr toqat, nimaiki ustoz istasa, uni jon qulog'i bilan eshitib, chin ko'ngli bilan qabul qilish, e'tiqodli bo'lishdir" degan so'zlari o'rinlidir. Talabalar mexnatining davlat tomonidan munosib tarzda takdirlanishi ularning qobiliyatini yanada rivojlantiradi, ularning ijodiy faoliyati mukammallashadi, o'z ustida olib borayotgan ishlari takomillashadi, o'ziga berilgan mukofotga ijobiy javob beradi.

Albatta bu o'rinda xar bir tarbiyachi pedagogik tashkilotchilik mahoratiga ega bo'lishi kerak. Tarbiya jarayonini to'g'ri tashkillashtirish, darsdan so'ng talabalarning bo'sh vaqtini taqsimlash kerak. Bunda talabalarning ota-onalari bilan yaqindan munosabatda bo'lishlari kerak, ular bilan suxbatlarni quyidagi yo'nalishlarda olib bormog'i lozim:

1. Talabaning xarakter xususiyati, oiladagi o'rni, mavqeyi, ruxiy xolatini o'rganishda.

2. Odob va axloqqa doir suhbat. (sharqona urf-odat, rasm-rusumlar, yangi chiqqan adabiyotlar).

3. Tarbiyasi murakkablashgan talabalarning ota-onasiga maslahat berish, pedagogning yakkama-yakka suxbati puxta, asosli va mantiqan boy bo'lsa, ota-onani unga ishonchini oshiradi - natijada erkin dil so'zlari, maslaxat, o'zaro yordam kabi bir xamkorlik xolati vujudga keladi.

Pedagog ota-ona va talabalar bilan yakkama-yakka faoliyatini yo'lga qo'yish uchun ota-onalar shaxsini, oilaviy axvolini bilish kerak. Pedagog ota-onalar xaqida ma'lumotga ega bo'lgandan keyin ularning farzandlari xaqida ma'lumotni aniqlab olish muximdir. Pedagogning talabalarni to'liq o'rganishi, tarbiyaviy tadbirlarni mukammal ta'sirchan uyushtirishga imkoniyat yaratadi.

Pedagog o'z faoliyatida quyidagilarga e'tibor berishi lozim:

1. Talabalarda shakllanib kelayotgan ijobiy fazilatlarni tavsiflash, ularni bilim olishga qiziqtirish, rostguy, ma'rifatli, mexrli, do'stlik, o'z-o'zini boshqarish, mehnatga munosabatini rivojlantirish.

2. Talabalarning ruhiy quvvati va temperament turlarini ajrata olish.

3. Talabadagi ijobiy va salbii o'zgarishlarni kuzatish va sababini o'rganish.

4. Talabadagi yolg'on gapirish va boshqa salbiy sifatlarini aniqlash.

Talabalar bilan turli sayoxatlar uyushtirish, kinoteatrlarga borish, o'yinlar tashkil qilish, bayramlarga bag'ishlangan kechalar o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Masalan: "Gullar bayrami" ertaligini o'tkazish talabalarning estetik xis tuyg'ularini o'stiradi.

Bayramni o'tkazishdan maqsad talabalarda yil fasllardagi mavsumiy o'zgarishlarni kuzatib borish, tabiatdagi o'simliklar dunyosi, turli-tuman gullar, ularning ustirishi va boshqalari xaqida tushinchalar berishdir.

Fan pedagoglari xar xil musobaqalar bellashuvlar o'tkazishlari xam talabaning bilimiga bilim qo'shadi, dunyoqarashini ustiradi, guruxdoshlari bilan aloqani mustaxkamlaydi; mustaqil fikrlashga undaydi. Kollejlarda tashkil qilingan xar xil to'garaklar xam talabalarining tarbiyasiga yaxshi ta'sir qilladi. Qaysi pedagog tashkilotchi, yangiliklarga intiluvchan bo'lsa, uning talabalari inoq, mehribon bo'lib o'sadilar. Ular do'stlarining, ota-onalarining, pedagoglarining, ilmning qadriga yetadigan barkamol inson bo'lib o'sib ulg'ayadilar. Davlatimizning eng buyuk maqsadi xam asli shudir.

Bu yo'nalishlarning xar biri bo'yicha aniq o'ylab chiqilgan, ilmiy jixatdan asoslangan ishlar rejasi, pedagoglar jamoasi uning o'quv-tarbiyaviy ishlari darajasidan kelib chiqadigan tizimi bo'lishi zarur.

Ta'lim-tarbiya jarayonida talabaning bilishga oid qiziqishlari ko'p qirrali qiyofalarda namoyon bo'ladi: talabaning harakatchan va qiziquvchanligi, talabaning ayrim o'quv faoliyatiga shuningdek, umuman o'qishga bo'lgan motivlari, talaba shaxsining o'ziga xos belgilari va uning yo'nalishini qaror topishi ana shular jumlasidandir.

Talaba yosh davriga xos tabiiy faolligi, biror bir aqliy qiziqish bilan qamrab olinmasa, uni qaysi tomon boshlab ketishini oldindan aytish qiyin. Shuning uchun ham K.D.Ushinskiy "zo'rlash va majburlashga asoslangan o'qitish" talabaning aqliy rivojlanishiga hyech qanday ta'sir ko'rsatmasligini alohida ta'kidlab o'tgan edi. Shuni ta'kidlash lozimki, qiziqishlar va motivlar talabalar o'quv faoliyatlarining shakllanish darajasiga qarab shaxsni shakllantiruvchi (talabaning nazariy fikri, o'qish faoliyatini talaba shaxsi uchun ahamiyati) dastlabki omillar bilan o'zaro murakkab munosabatlarda namoyon bo'ladi.

Dars jarayonida talabalarining bilim faoliyatini boshqarish bir necha omillarga bog'liq. Ularning eng asosiylaridan biri talabalarni o'z faniga qiziqтира

olishdir. Olimlar ta'kidlaganidek, faqat qiziqishgina psixik jarayonlar va ularning idrok, diqqat, xotira, tafakkur hamda iroda kabi vaziflariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Xo'sh, talabalarning o'qishga (bilishga) bo'lgan qiziqishlarini shakllantirish shartlari qanday? Mohir o'qituvchi ularni darsda talabalarda shakllantirish, o'quv faoliyatini faollashtirish va o'qishga bo'lgan qiziqishlarni doimo rivojlantirib borish uchun nima qilish kerak?

Mohir o'qituvchi talabalarda o'qishga bo'lgan qiziqishlarni shakllantirish va doimo rivojlantirib borish uchun quyidagilarga amal qilishi muhimdir:

1. Talabalarning bilimiga intilishini, fanga umuman olganda aqliy mehnatga qiziqishlarini rivojlantirish o'quv jarayonini shunday tashkil etilishini ta'minlaydiki, unda talaba faol harakat qiladi, mustaqil izlanish va yangi omillarni "kashf" etishga, muammoli vaziyatlarni o'zi hal etishga intiladi.

2. O'quv faoliyati boshqa faoliyatlar kabi faqat turlicha bo'lgandagina, qiziqarli bo'ladi. Bir xil usulda axborot berish va bir xil usuldagi harakatlar tez orada zerikishni vujudga keltiradi.

3. Fanga bo'lgan qiziqishni shakllantirishda bu fanni va uning ayrim qismlarini o'rganishning zarurligi, muhimligi va maqsadga muvofiqligini talabalarga anglatish juda zarurdir.

4. O'tilayotgan material oldingi material bilan qanchalik ko'proq bog'lab tushuntirilsa, u talabalarga shunchalik qiziqarliroq tuyuladi. O'quv materialini talabalar qiziqadigan narsalar bilan bog'lab tushuntirish ham ularni darsga qiziqtirishda muhim rol o'ynaydi.

5. O'rtacha qiyinlikdagi o'quv materiali talabalarda qiziqish uyg'otmaydi. O'quv materiali bir oz qiyinroq, lekin talabalar kuchi yetadigan bo'lishi kerak.

6. Talabalar bajargan ishlarni tez-tez tekshirish ham ularning fanga bo'lgan qiziqishini uyg'otadi.

7. O'quv materialining aniqligi, hissiyotga boyligi, o'qituvchining zavqlanib gapirishi talabaning fanga bo'lgan qiziqishini ortishiga juda katta ta'sir ko'rsatadi.

Ilg'or o'qituvchilar o'qitish metodlarini tanlashga alohida e'tibor beradilar. Talabalar frontal, differensiyalashgan va yakka tartibdagi faoliyatlarining umumiy

jiatlari kuproq bo'lsada, ularni tashkil etish o'qituvchidan o'ziga xos ijodiy yondoshishni talab qiladi. Talabalik faoliyati obyektning tarkibi va o'ziga xosligi, uning har bir aniq vaziyatga ijodiy yondoshishini taqozo qiladi. Agar talabaga butun sinf, guruh va alohida shaxsga nisbatan bir xil metod bilan ta'sir kursatilsa, unda tarbiya ham, ijodiy yondoshish ham barbod bo'ladi.

Ayrim hollarda o'qishga qiziqtiruvchi metodlarga, boshqa hollarda esa burch va javobgarlikni his etishni rag'batlantiruvchi metodlarga ko'proq e'tibor berish tavsiya etiladi. Tajribali o'qituvchilar o'tilayotgan mavzuning xalq xo'jaligi masalalarini hal etishdagi ahamiyatiga oid qiziqarli misollar keltiradilar, didaktik o'yinlardan, talabalar faolligini rag'batlantiruvchi turli usullardan foydalanadilar. Lekin talaba faoliyatida hamma narsani ravshan va qiziqarli holda tasavvur etish qiyin. Shuning uchun ham o'qituvchi talabalarda paydo bo'ladigan qiyinchiliklarni yengish uchun o'zida iroda va qat'iylikni ham tarkib topshirishi zarur.

Mohir pedagoglar ma'ruza, seminar, munozara, anjuman, o'quv sayohati, talaba-maslahatchilar yordamida mustaqil dars, ko'rik-tanlov kabi dars turlaridan foydalanishga alohida e'tibor beradilar.

O'qituvchining mohirligi yuqorida qayd qilingan noan'anaviy dars turlarini o'tish texnikasining egallashida namoyon bo'ladi.

Talabalar tafakkurini rivojlantirishda ma'ruza darslarining ahamiyati kattadir. Tajribaning ko'rsatishicha, ma'ruzani boshlashdan oldin bu materialni o'rganishdan ko'zlangan aniq maqsadni ta'kidlash lozim. So'ngra bilimlarni egallash g'oyasini isbotlash, oqilona harakat usullarini tanlash prinsiplarni ko'rsatish zarur. Shundan so'ngina mavzuning mohiyati ochib beriladi.

O'z ishiga ijodiy yondoshadigan o'qituvchilar ma'ruza davomida dialog, savol-javob, qaytarish, ziddiyatli vaziyatlar, o'xshatishlar va boshqa faoliyat turlaridan unumli foydalanadilar.

Talabalarda yangi bilimlarni va qonuniyatlarni kashf etish bilan bog'liq bulgan aqliy faoliyatni rivojlantirish uchun seminar darslari muhim ahamiyat kasb etadi. Ilg'or o'qituvchilar tajribalarida ta'kidlanganidek, seminar darsda eng qoloq talaba ham boshqa turdagi darsda uddalay olmaydigan miqdordagi aqliy ish bajarar

ekan. Mashg'ulotlar odatdagidan tashqari noan'anaviy usullarda olib boriladi. Ba'zan u munozara yoki suhbat shaklida bulishi mumkin. Lekin o'quv materiali aniq va ishonarli qilib bayon etiladi.

Ilg'or o'qituvchilar ish tajribasida munozara darslari ham muhim o'rin egallab kelmoqda. O'qituvchilarning ta'kidlashlaricha, munozara darslarni o'tish juda katta mohirlikni talab etadi. Bunda eng avvalo talabalar fikrlarini taqqoslash va ularning fikrlaridagi qarama-qarshiliklarni aniqlash muhimdir. Lekin darsning bu turini har doim qo'llash maqsadga muvofiq emas, chunki birinchidan, hamma mavzular ham munozarabop emas, ikkinchidan munozaraga tayyorgarlik ko'rish o'qituvchidan juda ko'p vaqt talab qiladi.

Tabiat qo'ynida yoki ishlab chiqarish sharoitida o'tiladigan darslar ham talabalarni fanga bo'lgan qiziqishlarining ortishida muhim rol o'ynaydi.

O'rta va oliy ta'lim muassasalarida dars berishning noan'anaviy metodlari qo'llaniladi va bu metodlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- dars – ma'ruza
- dars – seminar
- dars – munozara
- dars – konferensiya
- dars – sayohat
- dars - musobaqa
- mustaqil ishlar darslari

Darsning noan'anaviy shakllaridan biri ko'rik-tanlov darsidir. Bunda sinf (guruh) talabalari 3-4 tadan guruhlarga bo'linib, mavzuni mustaqil o'zlashtirib, darsni o'zlari bayon qiladilar. Darsning bu turi musobaqa shaklida o'tkazilgani uchun har bir talaba unga sidqidildan, astoydil tayyorgarlik ko'rishga intiladi. Baholashda ham guruhdagi barcha talabalar ishtirok etadilar. Bunda darsning mazmuni, metodik ta'minoti, materialni tushuntirishni o'ziga xosligiga alohida e'tibor beriladi. Talabalarning guruhchalarga bo'linib ishlashlari esa ularni jamoada hamkorlik bilan ishlashga, o'zaro yordam berishga o'rgatadi.

## XULOSA

Ўқувчиларнинг билим ўзлаштириш sohasidagi asosiy konfliktlar quyidagi hollarda kelib chiqishi aniqlandi: tushuntira olmaslik; sistemasiz, palapartish bayon; tilning o'ransiz murakkabligi; takrorlashning yo'qligi; materialni quruq bayon qilish; mavzuni hayot bilan bog'lay olmaslik; xo'ja ko'rsinga "mavzuni" bajarish; predmetga qiziqish uyg'ota olmaslik; xolis baholash olmaslik; arzimagan javobga yuqori baho qo'yish; barcha o'quvchilarga faqat "3" baho qo'yish va hokazo.

O'qitish jarayonini tashkil etishda bugungi kunda ortiqcha jismoniy va ruhiy kuch sarflamay yuqori natijalarga erishishga qaratilgan metodlardan foydalanish asosiy vazifalardan biridir. Xususan, o'quvchilarning faoliyatli ta'lim olishini ta'minlashda muammoli o'qitish metodlaridan foydalanish yuqori samaradorlikni ta'minlaydi.

Muammoli o'qitishda ilg'or o'qituvchilarning tajribasiz o'qituvchidan tubdan farq qiluvchi tomonlari quyidagilardan iborat: tajribasi bo'lmagan o'qituvchilar darsda talabalarga asosan bilimlarni tayyor holda beradilar. Bunday o'qituvchilar darsda ko'proq o'quv materialini o'quvchiga tushuntirishga yoki darslikdan talabalarni yod oldirishga harakat qiladilar. Ba'zi o'qituvchilar esa "hammabop" kombinasiyalashgan darsga o'ta berilib ketadilar va bir xil andoza bo'yicha ishlaydilar. Albatta, bu o'qitishdagi muammoni izlab topish muammoli vaziyatlar yaratishdan oson. Ba'zi o'qituvchilar esa rivojlantiruvchi ta'lim mohiyatini to'la-to'kis tushunib yeta olmaydilar. Ular yetarli daraja didaktik va umumpedagogik ma'lumotlarga ega emaslar. Natijada muammoli o'qitishni joriy etishda muvaffakiyatsizlikka uchraydilar.

Mohir o'qituvchilar bilimlarni o'zlashtirishning barcha bosqichlarida muammoli vaziyat yaratishga erishadilar. Ular talabalarning formula va qonunlarni, son-sanoqsiz raqamlar va ismlarni, yuzlab qoida va ta'riflarni soxta yod olishlarini, ularning xotiralarini hayotda kerak bo'lmaydigan narsalar bilan to'ldirib band qilishini qoralaydilar.

Demak, o'quv-tarbiya jarayonining natijalari pedagogning maxoratiga, tashkilotchilik faoliyatiga va kasb ko'nikmasiga bog'liq ekan. Darsning samaradorligi, ta'limiy, rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi jarayonini oshirish uchun quyidagilarni amalga oshirish zarur:

- pedagogning ma'naviy-axloqiy, siyosiy, ilmiy nazariy va metodik darajasini oshirish;

- pedagogik mehnat sifatiga, darsga tayyorlanishga mas'ul munosabatni belgilash;

- barcha o'quv-tarbiyaviy ishlar bo'yicha samarali nazoratni tashkil etish;

- talabalarda o'qishga mas'uliyat munosabatni tarbiyalash bo'yicha ular bilan ish olib borish, bilimlaridagi nuqsonlarning oldini olish, bilim, ko'nikma va malakalarning yuksak sifatiga ega bo'lishi uchun kurashish, bu ishga talabalarning o'zini faol jalb qilishi kerak.

So'nggi yillarda olimlar tomonidan nashr qilingan pedagogik adabiyotlarda didaktik prinsiplar turlicha guruhlashtirilmoqda.

Ana shularga asoslangan holda quyidagicha ta'lim prinsiplari ko'rsatib o'tish mumkin:

1. Ta'limning ilmiy bo'lishi prinsipi.
2. Ta'lim va tarbiyaning birligi prinsipi.
3. Ta'limning sistemali va izchil bo'lishi prinsipi.
4. Ta'limda nazariyaning amaliyot bilan bog'liq bo'lishi prinsipi.
5. Ta'limda onglilik, faollik va mustaqillik prinsipi.
6. Ta'limda ko'rsatmalilik prinsipi.
7. Ta'limda o'quvchilarga mos bo'lish prinsipi.

8. Ta'limda bilim, ko'nikma va malakalarini puxta va mustaxkamlanish prinsipi.

9. O'quvchilar jamoasiga ta'lim berish jarayonida har qanday o'quvchiga xos xususiyatlarni hisobga olib o'qitish printipi.

### **Adabiyotlar:**

1. Karimov I.A. «Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori» Toshkent.O'zbekiston 1997 y
2. O'zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risidagi Qonuni”, T., 1997.
3. Karimov I.A. O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari.- “Turkiston”, 2002 yil 31 avgust
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. - Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
5. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratishtirish va yangilash, mamlakatni modernizasiya va isloh etishdir. T.: “O'zbekiston”, 2005.-96 b.
6. Mavlonova R., To'rayeva O., Xoliqbyerdiyeva K. Pyedagogika. – T.: O'qituvchi, 2001.
7. Pyedagogika. // M.Toxtaxodjayevaning umumiy tahriri ostida. – T.: O'zbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati, 2010.
8. Ziyomuxammyedov B. Pyedagogika. – T.: Turon-Iqbol, 2006.
9. Ibragimov X.I., Abdullayeva Sh.A. Pedagogika nazariyasi. - T.: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2008.
10. Azizxo'jayeva N.«Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat». TDPU-2003.
11. Giddens Entoni. «Sosiologiya». T., «Sharq», 2002. 115-125 b.
12. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. Toshkent. “ IQTISOD-MOLIYA”, 2010 y.
13. Ochilov M. «Muallim qalb me'mori»: Saylanma. T., «O'qituvchi», 2000
14. Sultonova G. «Pedagogik mahorat». O'quv-metodik qo'llanma. T., 2005
15. Internet ma'lumotlari quyidagi saytlardan olinadi:  
[www.referat.arxiv.uz](http://www.referat.arxiv.uz)  
[www.bilimdon.uz](http://www.bilimdon.uz),  
[www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz),  
[www.tatu.uz](http://www.tatu.uz)